



Dildora NIYAZMETOVA,
PhD, Urganch innovatsion universiteti
E-mail: dildora.n@urdu.uz

Dotsent Q.Olloyorov taqrizi asosida

INGLIZ VA O'ZBEK TILLARIDAGI FRAZEOLIGIZMLARNING AUDITORIYA HISSIYOTLARIGA TA'SIRI

Annotatsiya

Ushbu maqola ingliz va o'zbek tillaridagi frazeologizmlarning auditoriya hissiyotlariga ta'sirini psixolingvistik nuqtai nazardan o'rganadi. Tadqiqotda ikkala tilning frazeologizmlari tuzilishi, semantik xususiyatlari va hissiy ta'siri bo'yicha taqqoslanadi hamda madaniy farqlarning psixologik rezonansga ta'siri tahlil qilinadi. Misollar asosida ingliz va o'zbek tillaridagi frazeologizmlarning o'xshashliklari va farqlari aniqlanib, ularning hissiy ifoda mexanizmlari ko'rsatiladi. Tadqiqot natijalari til, madaniyat va hissiyotlar o'rtasidagi chuqur aloqani namoyon etadi.

Kalit so'zlar: Frazeologizmlar, psixolingvistika, hissiyotlar, ingliz tili, o'zbek tili, taqqoslash tahlili, madaniyat, semantika, idrok, tilshunoslik.

THE INFLUENCE OF PHRASEOLOGISMS IN ENGLISH AND UZBEKISTAN ON AUDIENCE EMOTIONS

Annotation

This article studies the impact of phraseologisms in English and Uzbek on audience emotions from a psycholinguistic perspective. The study compares phraseologisms in both languages in terms of structure, semantic features, and emotional impact, and analyzes the impact of cultural differences on psychological resonance. Based on examples, the similarities and differences of phraseologisms in English and Uzbek are identified, and their emotional expression mechanisms are shown. The results of the study demonstrate a deep connection between language, culture, and emotions.

Key words: Phraseologisms, psycholinguistics, emotions, English, Uzbek, comparative analysis, culture, semantics, perception, linguistics.

ВЛИЯНИЕ ФРАЗЕОЛОГИЗМОВ АНГЛИЙСКОГО И УЗБЕКИСТАНСКОГО ЯЗЫКОВ НА ЭМОЦИИ АУДИТОРИИ

Аннотация

В данной статье изучается влияние фразеологизмов английского и узбекского языков на эмоции аудитории с психолингвистической точки зрения. В исследовании сравниваются структура, семантические свойства и эмоциональное воздействие фразеологизмов обоих языков, а также анализируется влияние культурных различий на психологический резонанс. На основе примеров выявляются сходства и различия фразеологизмов английского и узбекского языков, а также показываются их механизмы выражения эмоций. Результаты исследования выявляют глубокую связь между языком, культурой и эмоциями.

Ключевые слова: Фразеологизмы, психолингвистика, эмоции, английский язык, узбекский язык, сравнительный анализ, культура, семантика, восприятие, лингвистика.

Kirish. Frazeologizmlar tilning muhim tarkibiy qismi bo'lib, ular nafaqat lingvistik ifoda vositasi, balki xalqning madaniyati, tarixi va psixologik xususiyatlarini aks ettiruvchi ko'zgu sifatida ham xizmat qiladi. Ingliz va o'zbek tillari bu borada o'ziga xos farqlarga ega: ingliz tili global va pragmatik xususiyatlarga ega bo'lsa, o'zbek tili milliy ruhiyat va jamoaviy qadriyatlar bilan boy. Tadqiqotning maqsadi ingliz va o'zbek tillaridagi frazeologik birliklarning qurilishi, semantik xususiyatlari va hissiy ta'sirini solishtirish, shuningdek, madaniy o'ziga xosliklarning psixologik aks-sado berishdagi o'rnini ochib berishdan iborat. Frazeologizmlarning o'ziga xosligi ularning tasviriy va metaforik ma'nolarida yotadi. Masalan, ingliz tilidagi "kick the bucket" (o'lish) yoki o'zbek tilidagi "joni uzildi" frazeologik iborasi semantik jihatdan odamning hayotdan ko'z yumishi, ya'ni o'limni ifodalaydi. Biroq, bu ibora oddiygina biologik o'lim faktini emas, balki psixologik va hissiy jihatdan og'ir, dramatik tuyg'uni aks ettiradi. "Jon" so'zi o'zbek madaniyatida hayotning eng muhim va muqaddas mohiyati sifatida qaralganligi sababli, uning "uzilishi" nafaqat jismonan, balki ruhiy jihatdan ham katta yo'qotish yoki fojia sifatida qabul qilinadi. Shunday qilib, "joni uzildi" iborasi o'limni chuqur qayg'u, iztirob va hayotning yakuniy nuqtasi bilan bog'liq ma'no sifatida ishlatiladi va ushbu iboralar oddiy so'zlardan farqli o'laroq, madaniy va psixologik chuqurlikni ifodalaydi. Frazeologizmlar psixolingvistik nuqtai nazardan tilning kognitiv va emotsional jihatlarini aks ettiruvchi birliklar sifatida o'rganiladi. Rus tilshunosi V.V. Vinogradov frazeologizmlarni tilning barqaror iboralari sifatida tasniflab, ularning xalqning tarixiy tajribasi va madaniyati bilan bog'liqligini ta'kidlaydi.[2,

53] Amerikalik tilshunos R.W. Gibbs frazeologizmlarni kognitiv tushunchalar sifatida o'rganib, ularning idrok va hissiyotlar bilan aloqasini ochib bergan.[5,117] O'zbek tilshunosi Sh. Rakhmatullaev o'zbek frazeologizmlarini xalqning ruhiy olami va hayotiy tajribasining ifodasi deb baholagan. [4, 16] Psixolingvistik jihatdan, frazeologizmlar miyada hissiy javobni kuchaytiradi, bu esa ularning madaniy kontekstga bog'liqligini ko'rsatadi. Ushbu tadqiqot yangiligi shundaki, u ingliz va o'zbek tillaridagi frazeologizmlarni psixolingvistik nuqtai nazardan taqqoslaydi.

Tadqiqot metodologiyasi. Maqolada kontrastiv tahlil usuli qo'llaniladi. Ingliz va o'zbek tillaridan tanlangan frazeologizmlar psixolingvistik nuqtai nazardan tahlil qilinib, ularning hissiy ta'siri tasniflanadi. Tadqiqotda V.V. Vinogradovning frazeologik tasnifi asos qilib olinadi.

Frazeologizmlar tilning tasviriy va hissiy imkoniyatlarini boyitadigan til birliklari bo'lib, ularning ma'nosi so'zma-so'z tarjimadan kelib chiqmaydi. V.V. Vinogradov frazeologik birliklarni uch guruhga ajratadi:

1. Frazeologik birikmalar – ma'nosi to'liq motivatsiz (masalan, inglizcha "kick the bucket" – o'lish; o'zbek tilida "ko'ngli qolmoq" o'zining literal ma'nosidan farq qiladi. To'g'ridan-to'g'ri qaraganda, "ko'ngil" va "qolmoq" so'zlari faqat hissiy holat yoki ruhiy ahvolni anglatmaydi. Ammo frazeologik ma'noda, "ko'ngli qolmoq" iborasi "xafa bo'lish", "mijozdan yoki narsadan biror narsa kutib qolish va keyin hayajonli yoki qayg'uli holatda bo'lish" kabi ma'nolarni bildiradi. Masalan: "Uning ko'ngli qolganidan keyin qo'lini yuvib qo'ltig'iga artidi" — bu

yerdan "ko'ngli qolmoq" FBsi, uning kutilgan natija yuz bermagani sababli qayg'u yoki xafa bo'lishini anglatadi.

2. Frazeologik birliklar – qisman motivatsiz (masalan, inglizcha "break a leg" – o'ladan tilash; o'zbekcha "ko'zlaridan yulduzlar chaqnaydi" – juda xursand).

3. Frazeologik kombinatsiyalar – tuzilishi o'zgaras (masalan, inglizcha "to take place" – sodir bo'lmoq; "Qo'lidan kelmoq" – bu ibora "biror ishni amalga oshira olish" yoki "qobiliyatga ega bo'lish" ma'nosini anglatadi. Sh. Rakhmatullaevning fikricha, o'zbek tilidagi frazeologik birliklar ko'pincha xalq og'zaki ijodi va qadimiy an'analarga asoslanadi (Rakhmatullaev, 2007, 15-bet).

Psixolingvistika sohasida olimlar idiomalarning so'zma-so'z ifodalarga qaraganda miyada boshqa kognitiv yo'llarni faollashtirishi haqida fikr bildiradi. Jerome Bruner psixolingvistika va kognitiv psixologiyani muhim vakili sifatida, tilni faqat tashqi realiyani aks ettirish uchun emas, balki kognitiv jarayonlarni shakllantirish va fikrlarni tashkil qilishda ham rol o'ynashini ta'kidlagan. Unga ko'ra, idiomalar, odatda, so'zma-so'z tarjimadan ko'ra, butun bir obraz yoki kontseptni anglatadi, bu esa miyadagi boshqa kognitiv kanallarni faollashtiradi. Uning "Acts of Meaning" asarida, tilni faqat kommunikatsiya vositasi sifatida emas, balki insonlarning dunyoqarashini shakllantiruvchi vosita sifatida ko'rsatadi. Bruner, shuningdek, idiomalar va metaforalarning miyada boshqa kognitiv kanallarni faollashtirishini tushuntiradi, chunki ular so'zma-so'z ma'nodan ko'ra butun bir obraz yoki kontseptni ifodalaydi [1]. Vygotskiy Lev Semenovich til va fikrlash o'rtasidagi bog'liqlikni chuqur o'rganib, tilning kognitiv jarayonlarni shakllantirishdagi ahamiyatini ta'kidlagan.

Xursandchilik. "On Cloud Nine" va "Yettinchi Osmonda Uchib Yurmoq" frazeologizmlari: Psixolingvistik tahlili: "On cloud nine" frazeologizmi ingliz tilida baxt, xursandchilik yoki quvonchni ifodalashda ishlatiladi. Bu ifoda tasviriyl tarzda "bulutlarda bo'lish" yoki "osmonning yuqori qismida" bo'lishni anglatib, yuqori darajadagi xursandchilikni ifodalaydi. Psixolingvistik nuqtai nazardan, idiomalar insonning ongida tasavvurlar va his-tuyg'ularni shakllantiradi. Ingliz tilidagi "on cloud nine" iborasi baxtni yuqori va yuksak holatda tasvirlaydi.

"qismi, baxtni yuqori darajada his qilishni, erkinlikni aks ettiradi.

Ingliz va o'zbek tilidagi frazeologizmlar bir-biriga o'xshash, ammo ularning tasavvurlari va madaniy konteksti turlicha. Ingliz tilida "cloud" (bulutlar) baxtni yengillik va erkinlik bilan bog'laydi, o'zbek tilidagi "yettinchi osmon" ko'proq ideal holat, yuksaklik va mukammallikni tasvirlaydi. Shunday qilib, bu frazeologizmlar psixolingvistik jihatdan ba'zi farqlarni ko'rsatadi: inglizcha ifodalar ko'proq oddiy baxtni, o'zbekcha ifoda ruhiy yuksalishni tasvirlaydi.

Shuningdek, "Ko'zlaridan yulduzlar chaqnaydi" frazeologizmi, ko'zlar orqali baxt, sevgi yoki quvonchni ifodalashga xizmat qiladi. Yulduzlar ko'pincha yuksaklik va mukammallikni ifodalaydi. Ingliz tilidagi "eyes sparkle with joy" va "eyes shine" iboralar ham o'zbek tilidagi "ko'zlaridan yulduzlar chaqnaydi" bilan o'xshash, ammo madaniy kontekstda ba'zi farqlar mavjud. O'zbek tilidagi "yulduzlar chaqnaydi" iborasi baxt va ideal holatni kuchliroq ifodalaydi, ingliz tilida bu baxtni oddiy va realistik tarzda tasvirlashga qaratilgan.

Shunday qilib, ikkala frazeologizm tilshunoslik va psixolingvistik jihatdan o'xshash bo'lsa-da, ularning madaniy va tasavvurlar asosida farqlari mavjud. O'zbek tilidagi frazeologizm ko'zlar haqidagi tasavvurlar insonning his-tuyg'ularini yanada shaxsiy va chuqur aks ettiradi. Ingliz tilidagi frazeologizmlar ko'proq umumiy baxtni tasvirlashga mo'ljallangan.

Qayg'u. Psixolingvistik jihatdan frazeologizmlar, ya'ni iboralar va so'z birliklari tilshunoslik va psixologiya sohalarini birlashtirgan tushunchalardir. Ular tildagi ma'naviy va psixologik xususiyatlarni o'zida aks ettiradi. Qayg'u, ya'ni noqulaylik, tashvish, azob-uqubatlarni ifodalovchi frazeologizmlarni ko'rib chiqamiz. Ingliz tilidagi frazeologizm: "to carry the weight of the world on one's shoulders" (dunyo og'irligini yelkasida olib yurish). Bu frazeologizm odamning juda katta tashvish yoki mas'uliyat bilan yashayotganini bildiradi. Tabiatan, bu ibora his-

tuyg'u va ruhiy holatni ifodalovchi bir obrazni o'zida mujassamlashtiradi: odamning yelkasida bir dunyo og'irligi, stress va qayg'u mavjud. Mumkin bo'lgan asosiy psixologik holatlar: Bu frazeologizm odamni ruhiy jihatdan siqilayotgan, o'z ustida juda ko'p mas'uliyatni his qilayotgan shaxs sifatida tasvirlaydi. Psixologik nuqtai nazardan, bu kabi iboralar odamning ortiqcha yukni o'ziga olib, ruhiy farovonligini buzayotgan holatni aks ettiradi. O'zbek tilidagi ekvivalenti "dunyoni yelkasida ko'tarish" bo'lishi mumkin. Ushbu ibora ko'pincha odamning haddan tashqari tashvishlari, stress yoki mas'uliyatni his qilishi bilan bog'liq. Psixolingvistika nuqtai nazardan, bu ibora odamning psixologik holatini ifodalaydi va aynan "dunyo" (yoki og'ir yuk) tasavvuri bilan bog'lanadi. Bu tasavvur shaxsning ichki kuchini sinovdan o'tkazadi va ko'pincha odamda qaror qabul qilish, boshqarish yoki muammolarni hal etish qobiliyatiga ta'sir ko'rsatadi. Demak, "dunyoni yelkasida ko'tarish" iborasi, psixologik stress yoki og'ir mas'uliyatni his qilishni anglatadi, va bu ibora o'zbek tilida ham kuchli tasavvur va emotsional reaksiyalarni keltirib chiqaradi.

G'azab tuyg'usi — bu odamning psixologik holatida kuchli salbiy hissiyotlardan biri bo'lib, ko'pincha jismoniy va ruhiy energiyani kuchli ifodalanishi sifatida namoyon bo'ladi. Psixolingvistik nuqtai nazardan, g'azabni ifodalovchi frazeologizmlar tildagi simvolik ifodalar orqali odamning ruhiy holatini aks ettiradi. Ingliz tilida g'azab tuyg'usini ifodalovchi frazeologizmlar psixolingvistik nuqtai nazardan o'rganilganda, ular tildagi kuchli, hissiy ifodalar sifatida insonning ruhiy holatini va ichki kayfiyatini aks ettirishiga guvoh bo'lamiz. O'zbek tilida "Jahli chiqmoq" frazeologizmining ma'nosi odamning kuchli g'azabini ifodalovchi bir holatni tasvirlaydi. Bu ibora, shuningdek, o'zgaruvchan ichki dunyoni tashqi faoliyat bilan bog'lab, muloqotda odamning holatini yaxshiroq tushunishga yordam beradi. Sotsial va madaniy kontekstda "Jahli chiqmoq" iborasi o'zbek tilida keng tarqalgan bo'lib, madaniyat va tilda tez-tez ishlatiladigan bir ifoda hisoblanadi. G'azab, stress va kuchli emotsionalni tashqariga chiqarish, o'zaro muloqotda yoki jismoniy harakatda aks etishi mumkin. Bu ikkala ibora har ikkala tilda ham til egalari uchun doimiy ruhiy holatlarni ifodalashda qulay vosita bo'lib xizmat qiladi. "Jahli chiqmoq" va "to blow one's top" frazeologizmlari o'rtasida ma'no va tuzilish jihatidan o'xshashlik mavjud. Har ikkisi ham g'azabni ifodalash va odamning ichki stressini tashqi dunyoga chiqarish jarayoniga ishora qiladi. Shuning uchun, "jahli chiqmoq" frazeologizmi "to blow one's top" uchun yaxshi ekvivalent hisoblanadi.

Qo'rquv. Ingliz tilida "Shaking like a leaf" (yaproqdek titrash) – tashqi ko'rinishga urg'u beradi. Ushbu frazeologizm va uning o'zbek tilidagi ekvivalentini psixolingvistik jihatdan tahlil qilishda, biz ularning ma'nosi, emotsional izohini va madaniy kontekstini o'rganishimiz mumkin. Ingliz tilida qo'rquv yoki vahima tufayli titragan holatni ifodalovchi frazeologizmi bo'lib, qo'rquvdan yoki kuchli emotsional ta'sirdan siqilishni va titrashni tasvirlaydi. Yaproq o'zining nozikligi va shamolda titrash xususiyati tufayli bu ifoda ishlatiladi. Bu ibora asosan kuchli hissiy reaksiyalarni tasvirlashda qo'llaniladi. O'zbek tilida "yaproq kabi titramoq" kabi tarjima qilinadi. O'zbek tilida "Yuragi og'ziga kelmoq" frazeologizmi qo'rquvning jismoniy (yurak urishi) va ruhiy (vahima) ta'sirini obrazli tarzda yetkazadi. Bu frazeologizmlar bu holatni aks ettiradi va qo'rquv, xavotir yoki kuchli emotsional stressdan titrashni tasvirlaydi. Ingliz tilidagi "shaking like a leaf" va o'zbek tilidagi ekvivalenti psixolingvistik nuqtai nazardan bir-biriga o'xshash. Har ikkalasi ham odamning ichki hissiy holatini tashqi faoliyat (titrash) orqali ifodalaydi. Psixologik nuqtai nazardan, bu iboralar odamning stress, qo'rquv yoki xavotir kabi holatlarda ichki tizimdagi o'zgarishlarni tashqi ko'rinishga chiqarishini ko'rsatadi. Madaniy kontekstda Ingliz tilidagi "shaking like a leaf" iborasi, o'zbek tilidagi frazeologizmdan farq qiladi, chunki ingliz madaniyatida yaproq (leaf) va uning titragani bilan bog'liq tasvirlar ko'proq ishlatilgan. O

Xulosa. Tadqiqot shuni ko'rsatadiki, ingliz va o'zbek tillaridagi frazeologizmlar hissiy ta'sirga ega bo'lsa-da, ularning qabul qilinishi madaniy va lingvistik farqlar tufayli o'zgaradi. O'zbek tilidagi iboralar jamoaviy qadriyatlar va ichki hissiyotlarga, ingliz tilidagi iboralar individual tajribaga

yo'naltirilgan. Kelajakda bu sohada ko'proq empirik tadqiqotlar o'tkazish tavsiya etiladi.

ADABIYOTLAR

1. Bruner, J. Acts of Meaning: Four Essays. Harvard University Press. 1990 y.
2. Vinogradov V.V, "Izbrannye trudi: Leksikologiya i leksikografiya", 1977 y.
3. Vygotskiy, L. S. Thought and Language. MIT Press. 1986
4. Rahmatullaev Sh. O'zbek tilining frazeologik lug'ati, Toshkent: 1992.
5. Raymond W. Gibbs. The Poetics of Mind: Figurative Thought, Language, and Understanding. First edition. 1994.